

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924)	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar)	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE)	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA)	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNINI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASSTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizaitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejaveliyevna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUHOJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyeva Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILIIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Абдуллаева Дилдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

CONSTRUCTION OF THE TASHGUZAR-BOYSUN-KUMKURGAN RAILWAY IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

Termiz University of Economics and Service

Doctor of Philosophy in History (PhD)

Abstract. This article explores the construction of one of Uzbekistan's major infrastructure projects following independence — the Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway — and its significance for the region's socio-economic development. The railway not only facilitated freight and passenger transportation by connecting Surkhandarya region with the central parts of the country, but also contributed to economic stability, job creation, and regional integration. The article analyzes the strategic importance of the project, stages of its implementation, and its impact on public welfare.

Keywords: Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway, infrastructure, independence, regional integration, economic development, Surkhandarya, transport system.

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: xudoyberdiyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng amalga oshirilgan yirik infratuzilma loyihalaridan biri — Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi va uning mintaq taraqiyotidagi o'rni yoritiladi. Ushbu temir yo'l nafaqat Surxondaryo viloyatini mamlakatning markaziy hududlari bilan bog'lab, yuk va yo'lovchi tashishni qulaylashtirdi, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va hududiy integratsiyaga xizmat qildi. Maqolada loyihaning strategik ahamiyati, amalga oshirish bosqichlari hamda xalq farovonligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li, infratuzilma, mustaqillik, mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy rivojlanish, Surxondaryo, transport tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N13>

Kirish. Tarixdan yaxshi ma'lumki, Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan mamlakatimizning Markaziy Osiyoda tabiiy-geografik, harbiy-strategik, geosiyosiy va iqtisodiy jihatdan o'rni benihoya muhimdir. O'zbekiston, ayniqsa uning janubiy qismi hisoblangan Surxon vohasida transport vositalaridan biri bu- temir yo'li qurilishi bilan bog'liqdir. Ushbu temir yo'li tarmog'ining kengayib borishi Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy-sivilizatsiyaviy salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun beqiyos imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Bu esa yurtimizda zamonaviy, samarador hamda xavfsiz transport-logistika infratuzilmasini yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangilanayotgan O'zbekiston uchun samarali logistika tizimini tashkil qilish juda muhim, strategik masaladir. Tarixga nazar solsak, O'zbekiston hududi asrlar davomida Yevropa va Osiyoni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'lining markazi bo'lib kelgan. Vaqt o'tishi bilan dengiz transportining rivojlanishi, yuksalish nuqtalarining Yevropa va Amerika qit'alariga ko'chishi hamda boshqa ko'plab omillar sabab ushbu savdo-sotiq yo'lining ahamiyati pasaygan.

Globalashuv jarayonlarining ta'sirida o'zaro integratsiyalashuv kuchayib borayotgan dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, madaniy aloqalarining yuksalishiga imkoniyat yaratilmoqda. XXI asrda transport sohasining rivojlanishida, ayniqsa logistika servis xizmatlaridan kengroq foydalanish, ichki va tashqi kommunikatsiya tizimini taraqqiy ettirish, innovatsion loyihalarni qo'llash nihoyatda muhim masalaga aylanib bormoqda. Ushbu sohaga ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar tomonidan transport va transmilliy yo'llar, transport va kommunikatsiya, kemping xizmati borasidagi yutuqlarni ommalashtirish ham zaruriy vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda transport sohasini modernizatsiya qilish, yoqilg'ini tejovchi modellarni yaratish hamda innovatsion g'oyalar asosida malakali mutaxassislarni tayyorlash, soha xodimlarining moddiy manfaatdorligini oshirish kabi masalalarga e'tiborni qaratish ham muhimdir [3].

Respublikamizda transport tizimini modernizatsiyalash, xizmat turlarini erkinlashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etish, xavfsizlik tizimlarining yangi turlarini yaratish borasida muhim innovatsion o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu borada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy xizmat uchun xodimlarni jalb etishga alohida ahamiyat qaratildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Markaziy Osiyoni yirik dengiz portlari va jahon bozorlari bilan bog'lash imkonini beradigan transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish biz uchun ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim edi. Ushbu tizimda olib borilayotgan o'zgarishlar jarayonida transport sohasidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish asosida turizm almashuvlarini yo'lga qo'yish, hududlarning eksport salohiyatini oshirish, ichki va tashqi savdoni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Bugungi kunga kelib Osiyo davlatlari shiddat bilan rivojlanmoqda, ularning jahon bozoridagi o'rni, mavqeyi tobora oshib bormoqda. Dunyo aholisining salmoqli qismi istiqomat qilayotgan Xitoy va Hindistonning rivojlangani esa yangi, zamonaviy Buyuk Ipak yo'lining qoq markazida joylashgan va jadal rivojlanayotgan O'zbekiston uchun ikki qit'ani bog'lovchi ko'priksifatida o'z mavqeyini yanada mustahkamlash, jahon bozoriga o'z mahsulotlari, xizmatlari bilan chiqish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda aholi daromadini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, uni tashqi bozorlarga yetkazish orqali ko'p tomonlama tashqi savdo-sotiq iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda transport logistikasi tizimining o'rni muhim ahamiyatga ega.

Samarali logistika tizimi tashqi bozorda mahsulot harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun sifatli, arzon narxlarda yetkazilishini ta'minlaydi. Bu esa tashqi bozorda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga ijobiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, logistika tizimidagi kichik uzilishlar ishlab chiqarishdagi katta yo'qotishlarga olib kelish mumkin.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston logistikasi mustaqillikkacha va mustaqillik davrining boshlarida faqatgina ichki bozor imkoniyatlariga yo'naltirilgan edi. Tizim shundan

kelib chiqib, korxonalar o'rtasida gorizontaal ravishda rivojlanib bordi. Bunda korxonalar o'rtasida tovar yetkazish sifatini oshirishga va mahsulotni eng kam xarajatlar bilan yetkazib borishga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu davrlarda mamlakatimiz xalqaro transport aloqalarida faqat shimoliy yo'lakdan foydalanadi, janubiy, g'arbiy va sharqiy xalqaro transport yo'laklariga avtomobil, temir yo'l, havo transporti bilan chiqish imkoniyati yo'q edi. Shu bois transport sohasida amalga oshirilgan islohotlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda O'zbekistonning o'rni va ahamiyati ortib borishiga e'tibor qaratildi [3].

Transport sohasidagi islohotlar temir yo'llarni ham chetlab o'tmadi. Temir yo'l boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida 1994-yil noyabrida O'rta Osiyo temir yo'lining O'zbekiston Respublikasida joylashgan temir yo'l korxonalari va bo'limlari, loyiha-konstruktorlik va boshqa tashkilotlari, muassasalari negizida "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi tashkil etildi. "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyasi tasarrufida asosiy temir yo'lning foydalanish uzunligi respublikada 3992 km ni tashkil etdi. Shundan 1992,7 km bekat yo'llari va 362,4 km respublika korxonalari shoxobcha temir yo'llari faoliyat ko'rsatmoqda. Surxondaryo viloyatidagi umumfoydalaniladigan temir yo'l shoxobchasining uzunligi 414,9 km iborat bo'ldi.

Sovet Ittifoqi qulaganidan keyin O'zbekiston viloyatlari bilan temir yo'l aloqalarini bog'lash ancha qiyinlashdi. Negaki, Farg'ona vodiysiga o'tish uchun Tojikistondan, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'istonga borish uchun qo'shni Turkmanistondan o'tish lozim edi. Birgina, Termiz shahridan Qoraqalpog'istonga temir yo'l orqali yuk yetkazish uchun oltita chegara-bojxona yo'lagidan o'tishga to'g'ri kelgan edi. Natijada, bu viloyatlardan temir yo'l orqali yo'lovchi tashish to'xtab qoldi. Termizdan Qarshi, Buxoro, Urganch, Nukus kabi shaharlarga Dushanbe-Moskva reysidagi poyezdda borilib, Turkmaniston Respublikasining Kelif shahrida teplovoz almashtirish jarayoni 2 soatga cho'zilishi ancha vaqtni olardi. Bunday holat, mamlakatimizning janubiy, shimoliy va sharqiy hududlarini o'zaro bog'lanishi hamda yuk tashish rivojiga to'sqinlik qilar, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muammolarni keltirib chiqarar edi [4].

XX asrning 90-yillarida Sovet Ittifoqi iqtisodiy integratsiyasining yo'qolishi, tashqi kommunikatsiyalar tizimidagi muammolar jug'rofiy jihatdan dengiz portlaridan uzoqda joylashgan O'zbekiston uchun keskin muammolarni yuzaga keltirdi. Bu hol birinchidan, davlatimizning iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralab, yuklarimiz tranzit tarzda o'tadigan mamlakatlarga qaramlik qilib qo'yishi mumkin; ikkinchidan, ittifoqdosh respublikalari o'rtasidagi bojxona tartib taomillarning mukammal emasligi oqibatida yuk tashuvchilar tovarlarni yetkazib berishga ketadigan vaqtning 40 foizigacha bo'lgan qismini behuda yo'qotmoqda edi. Bularning barchasi butun mintaqa transport sektori raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelmoqda edi.

Mazkur muammolarni hal etish birinchidan vaqt, ikkinchidan katta miqdordagi mablag'ni talab etardi. Bundan tashqari temir yo'l transportidagi harakatlanadigan tarkibning (lokomotiv va vagonlar) "jismonan" ishdan chiqqanligi va "ma'nan eskirganligi" ham zamon talabi darajasida xizmat ko'rsatish imkonini bera olmas edi. Mustaqillikning dastlabki yillari shoshilinch tarzda mamlakat temir yo'l transport tizimining moddiy-texnik ta'mirlash bazasini, lokomotiv va vagon saroyini saqlab qolish, yagona milliy temir yo'l tizimini barpo etish yuzasidan tegishli huquqiy-tashkiliy choralar belgilandi. Boshqa respublikalar hududida turgan vagon yoki teplovozlarini qo'ldan chiqarmay, qaytarib olib kelish, mamlakat iqtisodiyotining

yetakchi tizimi hisoblangan temir yo'l tarmog'i jilovini mahkam ushlab turish ko'p narsani hal qilardi [5].

Aynan mustaqillikning ilk kunidan boshlab, transport kommunikatsiyasi tizimini rivojlanishi uchun qator loyihalar amalga oshirildi. Davlat byudjetidan temir yo'llarni rekonstruksiya qilish, yangi temir yo'llar, ko'priklar qurilishi va tegishli infratuzilmalarni rivojlanishi uchun 8 milliard dollardan ortiq kapital qo'yilmalari, shundan 2,6 milliard dollardan ortiq kapital yo'naltirildi.

Ajratilgan mablag'lar hisobiga Surxondaryo temir yo'l tizimida ham muhim tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Agar XX asrning 90-yillari boshigacha Termiz bekatida temir yo'l xizmati ancha taraqqiy qilgan bo'lsa, 1991-yildan ishlar birmuncha kamaydi. Jo'natiladigan yuklar va yo'lovchilar tashish, temir yo'l xizmatida ishlovchi ishchi va xizmatchilar ham qisqarib, bu 45 % ni tashkil etdi. 1993-1994-yillardan boshlab esa ishlar jonlana boshlandi. Termiz bekatidan 2 kilometr uzoqlikda yangi yuk ortish-tushirish maydoni qurildi, bu maydon konteynerlar, og'ir yuklar va tovarlarni joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1996-yil ma'lumotiga ko'ra, Termiz temir yo'l bekatini birinchi darajali bekatdir. Bekatga bir yula 3 ta peregon biriktirilgan: 1) Termiz-Uchqizil, 2) Termiz- Baqtriya, 3) Termiz-G'alaba.

Mustaqillik yillarida Qumqo'rg'on bekatidan Argilet karyerigacha 37 km, Boldir bekatidan Oqtosh tuz konigacha 30 km. temir yo'llari qurib bitkazildi. Oqtosh tuz konigacha temir yo'l qurilishi Vatanimizni osh tuzi va sanoat tuzi bilan ta'minlashga imkon berdi. Sariosiyo bekatidan ko'mir tashish uchun Sharg'un temir konigacha ham temir yo'l tortildi. Sobiq SSSR parchalanib ketgach, O'rta Osiyo temir yo'lining Dushanbe temir yo'li tarkibida bo'lgan Termiz bo'limi 1992-yil 1-oktyabridan Dushanbe temir yo'lidan ajralib chiqdi [6].

1990-yillarning boshlarida mamlakatimiz janubini yagona temir yo'l tarmog'iga ulash dolzarb vazifaga aylandi. 1992-1998-yillarda turli ilmiy- texnikaviy ishlar olib borildi. Temir yo'l o'tadigan yo'nalishlar belgilab olindi.

Respublikamizning janubiy viloyatlari Qashqadaryo va Surxondaryoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, temir yo'lda yuk tashishning transport ta'minotini yaxshilash, mamlakat temir yo'l tarmog'ini jonlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 17-avgustda «G'uzor- Boysun-Qumqo'rg'on» yangi temir yo'l liniyasini loyihalashtirish va qurish masalalari to'g'risida qaror qabul qildi. Ma'lumki, bu temir yo'l qurilishi foydali qazilmalar konlarini kompleks o'zlashtirish, temir yo'lda yuk tashishning transport ta'minotini yaxshilash, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining yangi mintaqalari ishlab chiqarish va ijtimoiy vazifalarini hal etish, mamlakatimizning yagona temir yo'l tarmog'ini shakllantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Yangi temir yo'lining umumiy uzunligi G'uzordan –Qumqo'rg'ongacha 223 kilometrni tashkil qilib, shuning 115 kilometri Surxondaryo hududidan o'tadi. Bu hujjatni ikkala voqea mehnatkashlari ham zo'r qoniqish bilan kutib oldilar. 1995-yilning dekabrda Qarshi-Kitob temir yo'lining 31-kilometrda ana shu yangi qurilishning boshlanganligiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining jamoatchilik vakillari, loyihachilar, quruvchilar va temir yo'lchilar ishtirok etdilar.

Temir yo'l trassasi G'uzordan boshlanadi va viloyat chegarasigacha Mangij, Garniston, Bo'zaxo'r, Qoradaxona stansiyalari, Qayirma, Jarquduq, Beshbuloq, Chashmiobzon deb nomlangan razyezdlar quriladi. Viloyat tomon keladigan temir yo'l Oqrobot stansiyasidan boshlanib, Qumqo'rg'on tumanidan Makedon ko'prigiga kelib taqaladi. Shu yerdan temir yo'l

ikki tarmoqqa bo'linib, biri Qumqo'rg'on, ikkinchisi Surxon temir yo'l bekatiga borib tutashadi. Oqrobotdan keyin Oqnazar, Sho'rob, Rahmijom, Pitov, Xudoydod, Bandixon, Makedon bekatlari qurilishi ko'zda tutildi [3].

Temir yo'l qurilishi uch bosqichda o'tkazildi. Dastlab, 1998-yilda "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyasi o'z hisobidan "Toshg'uzor- Dehqonobod" yo'nalishini, 1999-yilda esa "Boysun-Qumqo'rg'on" liniyasida yo'l qurilishini boshladi.

Yangi liniyaning eng murakkab bo'lgan uchinchi qismida qurilish ishlarini boshlash maqsadida Yaponiya bilan hukumatlararo bitim imzolandi. Ushbu hujjatga binoan, 2001-yil 16-iyulda Yaponiyaning Tashqi savdoni rivojlantirish tashkiloti (JETRO) loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grant ajratdi.

Loyiha ishlari yakunlangach, 2003-yil 2-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" yangi temir yo'l liniyasi qurilishini jadallashtirish to'g'risidagi 43-sonli qarori chiqdi. Qarorga ko'ra, "Toshguzar-Dehqonobod" va "Boysun-Qumqo'rg'on" uchastkalari bo'yicha 2003-2005-yillarda davlat byudjeti mablag'lari (20%) hamda "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining o'z mablag'lari (80%) hisobiga "Dehqonobod-Boysun" uchastkasi bo'yicha 2004-2007-yillarda jalb etiladigan Yaponiyaning uzoq muddatli investitsiyalari hisobiga bosqichma-bosqich qurilishi belgilandi. Bosqichma-bosqich tuproq ishlari amalga oshirildi, ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar, zarur infratuzilma va vokzallar qurila boshlandi [7].

Murakkab tog' sharoitida barpo etilayotgan yangi temir yo'l liniyasining dengiz sathidan 1800 metrdan ortiq balandlikda, cho'qqi darajasidagi tog' tizmasini kesib o'tishida eng ilg'or texnologiyalar, zamonaviy uskunalar ishga solindi. Yangi temir yo'lni bunyod etish davomida jami 37 ko'prik, galereya va tunnel barpo etildi, 5 vokzal ("Toshguzar", "Dehqonobod", "Oqrobot", "Darband" va "Boysun"), 15 ajratma shoxobcha, shu jumladan, 7 stansiya va 8 razyezd qad rostladi. Liniyaning 81 kilometrigan uzunligi 234, 2 metrni tashkil etgan va Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ko'prik qurildi. Uni trassaning 350 metr radiusli yoysimon qismida balandligi 43 metrni tashkil etuvchi tayanch ustunlari ko'tarib turadi. Yangi liniya bo'ylab temir yo'l transporti xodimlari yashashi uchun umumiy maydoni 5 603 kvadrat metr bo'lgan o'ttiz beshta ikki qavatli kottej qurildi. "Darband" stansiyasida 216 o'quvchiga mo'ljallangan umumiy o'rta ta'lim maktabi va Dehqonobod" stansiyasida sport majmuasi barpo etildi.

2004-yilning oktyabr oyiga kelib "Toshguzar-Dehqonobod" va "Boysun- Qumqo'rg'on" uchastkalaridagi qurilish ishlari o'z nihoyasiga yetdi. Ish bilan tanishish maqsadida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov Toshg'uzorga keldi. Bu yerda poyezdda o'tirib Dehqonobodgacha bo'lgan hududda qurilish ishlarini ko'zdan kechirdi [4].

Qurilishning keyingi bosqichini amalga oshirish uchun 2004-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on yangi temir yo'l liniyasi qurilishi loyihasini amalga oshirishni jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 559-sonli Qarori chiqdi. Ushbu qaror qurilishining eng og'ir uchastkasi bo'lgan Boysun- Dehqonobod yo'nalishini qurishga qaratilgan bo'lib, unda Yaponiya hukumati tomonidan beriladigan uzoq muddatli kreditlarini jalb etish ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmon va maxsus qarorlari asosida 2007-yilning avgust oyida 223 kilometrlik "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'li 33 oyda, ya'ni muddatidan ikki yil oldin qurib

bitkazilib foydalanishga topshirildi. Qurilish davomida 5 ta vokzal, 7 ta temir yo'l stansiyasi, 8 ta razyezd, 37 ta ko'prik barpo etildi. Bu ko'priklarning 9 tasi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda bunyod etildi. Temir yo'l tarmog'ining 81 kilometrda Markaziy Osiyoda bitta bo'lgan uzunligi 234,2 metrli ulkan ko'prik qurildi. Baland tog' ustidagi qoyatoshlar tabiiy hodisalar tufayli tushib, poyezd vagonlariga zarar yetkazmasligi uchun bitta usti yopiq galereya qurildi.

Yangi temir yo'l liniyasi birinchi bosqichining qurilishi natijada Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini mamlakatning boshqa hududlari bilan ishonchli bog'lab turuvchi yagona va yaxlit temir yo'l kommunikatsiyalari tizimi shakllandi. Mazkur hududning boy mineral-xom ashyo resurslari konlarini samarali va kompleks ravishda o'zlashtirish, aholi bandligini ta'minlash, barqaror hamda jadal iqtisodiy o'sish va insonlar farovonligini oshirish, eksport salohiyatini o'stirib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekistonning jahon bozorlariga, eng avvalo transafg'on temir yo'l koridori orqali, bir vaqtning o'zida O'zbekistonning tranzit harakatidagi rolini oshirish bilan to'g'ridan-to'g'ri Hind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish imkoniyati paydo bo'ldi [3].

Chindan ham, temir yo'l qurilishi O'zbekiston tarixidagi olamshumul tarixiy voqea edi. Shu bois O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2007-yil 22-avgustidagi PF-3911-sonli Farmoniga ko'ra, "Toshguzar-Boysun- Qumqo'rg'on" temir yo'li qurilishida alohida o'rnak ko'rsatgan bir guruh ishchi- xizmatchilar mukofotlandi. Ushbu temir yo'l liniyasining ochilish marosimi 2007-yil 24-avgust kuni Darband stansiyasida bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham ishtirok etdi.

Xulosa. "Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'li, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Toshguzar va Qumqo'rg'onni bog'lagan, uzunligi 223 kilometr bo'lgan temir yo'l liniyasi bir kecha-kunduzda 14 juft poyezdni o'tkazish imkoniyatiga ega. Ushbu magistralning uzluksiz faoliyati tufayli yirik industrial loyihalarning amalga oshirilayotgani, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanayotgani bugun mamlakatimiz hukumatining uni bunyod etish borasidagi qarori nechog'li chuqur o'ylangani va uzoqni ko'zlaganligidan dalolat beradi. Biz uchun nafaqat strategik muhim transport yo'lagi, balki mamlakatimiz janubiy mintaqasi-Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini barqaror iqtisodiy rivojlantirish, ularda hayotiy ahamiyatga ega ijtimoiy muammolarni hal etish, aholi bandligi va farovonligi darajasini yuksaltirishda katta omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.56.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 7-noyabr PF -982-sonli "O'zbekiston temir yo'llari" davlat - aksionerlik kompaniyasini tuzish to'g'risida"gi Farmoni / www.lex.uz.
3. 16-fond materiallari Surxondaryo viloyat davlat arxivi.
4. O'zMA. F-25. Turkiston ASSR yer ishlari xalq komissarligi.
5. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 году. –Ташкент: Узбекистан, 1966. –С. 431.
6. Тогаева А.З. Железная дорога Ташкент - Оренбург и ее место в социально-экономической жизни Туркестана. Тарих фан. номз. дисс. автореф. - Т., 2010. - 30 б.
7. Узбекистан за годы восьмой пятилетки (1966-1970 гг.). –Ташкент: СК КП Узбекистана, 1971. – С.160.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).